INKLYUZIV TA’LIMDA INTERAKTIV METODLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGI

Yo’ldasheva Matluba Eshonqulovna
66-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi
boshlang’ich ta’lim o’qituvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llashning o‘quvchilar o‘zlashtirish darajasiga va ijtimoiy moslashuviga ta’siri tahlil qilinadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar mavjud sinflarda darslarni rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari va samarali strategiyalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, interaktiv metodlar, darsni rejalashtirish, differensial yondashuv, ijtimoiy integratsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние использования интерактивных методов в процессе инклюзивного образования на уровень освоения материала и социальную адаптацию учащихся. Описаны специфические особенности и эффективные стратегии планирования уроков в классах с детьми с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзивное образование, интерактивные методы, планирование уроков, дифференцированный подход, социальная интеграция.

Abstract: This article analyzes the impact of using interactive methods in the process of inclusive education on the level of mastery and social adaptation of students. The specific features and effective strategies for planning lessons in classes with children with special educational needs are described.

Keywords: inclusive education, interactive methods, lesson planning, differential approach, social integration.

KIRISH

Bugungi kunda jahon hamjamiyati "hamma uchun ta’lim" (Education for All) tamoyilini ilgari surmoqda. Bu tamoyilning negizida inklyuziv ta’lim yotadi. Inklyuziv ta’lim (fransuzcha inclusif – o‘z ichiga oluvchi, lotincha include – xulosa qilaman, ichkariga kiritaman) — bu bolalarning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy, til yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, umumta’lim jarayoniga jalb etilishini anglatuvchi tizimdir.



Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma’naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6- iyundagi 422-son qarori” qabul qilind.

Ta’lim shaxs rivojlanishining ikkita eng muhim jarayonni bajarishda asosiy ahamiyat kasb etadi, jumladan uning ma’naviy, axloqiy, badiiy, madaniy rivojlanishi va ijtimoiylashuvi, shuningdek, iqtisodiy holatini ijtimoiy ishlab chiqarish uchun malakali mehnat resurslarini ko‘paytirishni. Shuning uchun bilim olish jarayonining jadallashuvi, turli toifadagi o‘quvchilar tomonidan ta’lim olish jarayonining sifati va individuallashuviga qo‘yiladigan talablarning mos bo‘lishi, har kimga o‘sha davrda aniq ta‘lim olish imkonini beradigan keng ko‘lamli ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni zudlik bilan taqozo etadi. Ta’lim oluvchining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi qobiliyatidan qat’i nazar, unga eng mos keladigan joyda va makonda olishi yanada muhimroq.



Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi qulay korreksion rivojlantiruvchi o‘quv jarayonini tashkil etish, malakali mutaxassislarning mavjudligi va ularning sinf o‘qituvchisi bilan birgalikdagi faoliyatini nazarda tutadi. Bitta o‘qituvchining ishi jamoaviy ish bilan almashtiriladi. Bola bilan ishlaydigan jamoa koordinator, umumiy ta’lim o‘qituvchisi, maxsus o‘qituvchi, ijtimoiy ishchi va ota-onadan iborat. Ota-onalar jamoaning faol a‘zolariga aylanadilar va bolaning individual ta’limning harakat yo‘lini tuzish, amalga oshirish va monitoring qilish uchun o‘qituvchilar bilan teng ravishda ishlaydilar. Inklyuziv ta’limda bunday jamoaviy ishning eng muhim shakllaridan biri psixologik va pedagogik Kengash, uning maqsadi har bir bolaning ehtiyojlariga har xil turdagi va o‘rganish sur’atlarini moslashtirish va tegishli o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, tashkiliy chora-

tadbirlarni qabul qilish, o‘qitish strategiyasini ishlab chiqish orqali barcha uchun sifatli ta’limni ta’minlashdan iborat, ta’lim tizimi ichida va tashqarisida resurslar va hamkorliklardan foydalanish.

Inklyuziv ta’limning dastlabki metodologik bazasi Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniy kabi allomalarimizning asarlarida ilk g’oyalari keltirib o’tilgan. Hammamizga ma’lumki allomalarimizning asarlari Sobiq Sovet mustamlakasi davrida juda ko’plab ilmiy, badiiy kitoblar va qo’llanmalar xorijiy mamlakatlarga olib ketilgan bo’lib, yuqorida aytib o’tilgan olimlarning asarlari ham shular qatorida edi. Inklyuziv ta’limga ehtiyoj qanday paydo bo’ldi degan savol tug’ilishi ta’biiy albatta. Bunday ehtiyoj bevosita jahon urushlariga borib taqaladi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etish jarayonida integratsiya nuqtai nazaridan ta’limtarbiya va rivojlanish muammolarini hal etishda alohida ta’lim ehtiyojli bolaga zarur psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatuvchi sinf rahbari, maxsus o‘qituvchi, psixolog, tyutor yetakchi rol o‘ynaydi. Ular faoliyatining asosiy maqsadi alohida ta’lim ehtiyojli bolaning noto‘g‘ri moslashishini oldini olish, ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan muammoli o‘zaro munosabatlarda tanqidiy vaziyatlarning paydo bo‘lishi. Inklyuziv ta’limni psixologik qo‘llab-quvvatlashning maqsadi har xil boshlang‘ich imkoniyatlariga ega bo‘lgan barcha toifadagi bolalarning sifatli ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishdir.

Asosiy maqsadlar:

- inklyuziv ta’lim jarayonini samarali psixologik-pedagogik qo‘llab quvvatlash tizimini tashkil etish;

- alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalarni moslashtirish, tuzatish va ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini ta’minlash;

- yosh avlod ongida tolerantlik munosabatlarini tarbiyalash.

Inklyuziv ta’lim muhitiga qo‘shilishning dastlabki bosqichida o‘qituvchilar bilan treninglar o‘tkazish kerak, unda barcha ishtirokchilar o‘z qo‘rquvlari, umidlari va noto‘g‘ri tushunchalarini erkin ifoda etishlari mumkin. Trening davomida o‘qituvchilarga turli xil xususiyatlarga ega bo‘lgan bolalar haqida tushunarli ma’lumotlar, hissiy sohaning tipik xususiyatlari va bunday bolalarning xattiharakatlari tavsifi haqida tushuntirish. Psixologik

nuqtai nazardan, maktab o‘qituvchilari alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan xotirjam va etarli darajada muloqot qilishga harakat qilishlari, boshqa bolalar oldida ularning xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga harakat qilishlari juda muhim, bu yetarli darajada sabr-toqat va noziklikni talab qiladi. Ijtimoiy psixologik yordamda psixologik pedagogik testlar olinadi.

Inklyuziv maktablarda ishlayotgan xodimlar, pedagoglar o‘z zimmalariga quyidagi majburiyatlarni oladilar:

- ularga biriktirilgan hamma o‘quvchilarni o‘qitish;

-ta’lim berishga oid masalalarni xal etish va ularning monitoringini tuzish;

-o‘ziga xos bo‘lgan ta’lim datsuriga muvofiq o‘qitishni ta’minlash;

-kutilayotgan natija bolalar erishayotgan yutuqlardan farq qilsa, dastur qismlarini moslashtirish;

-turli xil auditoriyalarda ishlashni bilish; o‘quvchilarni ta’lim jarayonida qo‘llab quvvatlash.

XULOSA

Mamlakatimizda inklyuziv ta’limni ta’lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida tashkil etishning huquqiy – me’yorlari ishlab chiqilgan.

“Alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’limni tashkil etish maqsadida ta’lim muassasalari moddiy texnika bazasini mustahkamlash, o‘quv dasturlarini adaptivlashtirish, sog‘lomlashtiruvchi sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish hamda bu jarayonga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash” kabi muhim vazifalar belgilandi. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning imkoniyatlariga mos, davlat ta’lim standartlari me’yorlari inobatga olingan o‘quv muhitini samarali tashkil etish, bu jarayonda tashkilotlar va jamoat institutlari hamkorligini kuchaytirishyanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ijtimoiy-pedagogik masalalarni hal etishda ta’lim, sog‘liqni saqlash va mahalla tashkilotlarining imkoniyati cheklangan bolalarni sifatli ta’lim xizmatlari bilan ta’minlash borasidagi o‘zaro manfaatli hamkorligi talab etiladi. Bu esa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida metodik mahorat,

kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning klasterli yondashuvlari, tashkiliy omillari, pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, inklyuziv sinflarda darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan didaktik talablarni aniqlashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyundagi 422-son qarori”.
2. Inklyuziv ta’lim: Rossiyada rivojlanish istiqbollari (konferensiya uchun materiallar.
3. http://inclusion.vzaimodeystvie.ru/news/ivsetakiobuchenie/
4. Алехина С.В., Зарецкий В.К. Инклюзивный подход в образовании в контексте в контексте проективной инициативы «Наша новая школа» // Психологопедагогическое обеспечение национальной образовательной инициативы «Наша новая школа». М., 2010.
5. Нигматов, З.Г. Гуманистические основы педагогики: Учеб. пособие – М.: Высш. шк.,2004. – 400 с.
6. Pedagogika ensiklopediya -R.: Safarov O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Toshkent-2015. II jild.